

ZAMONAVIY OILADA ER-XOTIN MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-  
PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Abdullina Dilshoda Erkin qizi

Buxoro viloyati, Buxoro shahri Osiyo xalqaro universiteti  
pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistri

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Sharq va G'arb olimlarining oilaviy munosabatlar xususida olib borgan izlanishlari, oila tiplari, oilada er-xotin munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to`g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so`zlar:** *oila tipi, patriarxal, detotsentrik, psixoanalitik kontsepsiya, spetsifik funksiya, reproduktiv funksiya, muhofaza qiluvchi funksiya.*

Oila qurish ulkan voqeа. Bu nafaqat milliy, balki umumbashariy qadriyat. Ulug` allomalarimizning oila qurishga, uylanishga da`vat etganlarida, ota-bobolarimizning kelinkuyov ajdodlarini surishtirishlarida ham jisman, ham ruhan barkamol kelin yoki kuyov tanlash masalasiga naqadar jiddiy e'tibor qaratilganini ko'ramiz. Ayniqsa qizlarning bu borada ko'proq va jiddiyroq "imtihon"ga solinishlari zamirida buyuk hikmat bor. Yangi oilaviy juftlikning tashkil topishi uning a'zolaridan o'zlarida nikohgacha mayjud bo'lмагan integrativ sifatlarni shakllantirishlarini taqozo etadi. Bir vaqtning o'zida oila qurish kelin-kuyovlarning anglagan holda nimalardandir o'zlarini chegaralashlariga roziliklari hamdir. Yosh oila tizim sifatida ma'lum sharoitlarda uning elementlarini qo'llab-quvvatlovchi o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini ham shakllantiradi. Mazkur mexanizmlar oilaviy hayotning turli sohalaridagi tipik xulq-atvor normalaridir.

Oila jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy tayanchi hisoblanadi. Inson oilada dunyoga keladi, undagi urf-odat, an'analarni, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtiradi va dunyoqarashi shakllanadi. Nikoh va oila munosabatlari ijtimoiy masala sifatida hamma davrlarda olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Oila turli o'ziga xos qator xarakteristikalar (tarkibning geterogenligi, insonni oilaga kiritilganligining totalligi, polifunksionallik va hokazo)ni egallovchi kichik guruhning alohida turi sifatida bola shaxsini shakllantiradigan birlamchi ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy tajriba, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalariga ega bo'ladigan ilk ijtimoiy institut hisoblanadi [2].

Oila nafaqat individ xulq-atvorini shakllantiradi va belgilaydi, balki hayot davomida sezilarli darajada saqlanib qoladigan xulq-atvorning emotSIONAL rejasini va tuzilishini to'playdi, shu bilan birga har bir aniq davrda xulq-atvorga o'zgaruvchan ta'sir ko'rsatadi [3].

S.I.Golod oilaning 3 ta tarixiy tipini ajratib ko'rsatadi: patriarxal (an'anaviy), detotsentrik (zamonaviy), er-xotinlik (zamonaviydan keyingi) [4].

Oilanning patriarxal tipi 2 ta asosiy tamoyilga asoslanadi: qat'iy jins - yosh subordinatsiyasi hamda oila hayotiy faoliyati siklining barcha bosqichlarida shaxsiy tanlash xususiyatining yo'qligi.

Patriarxal oila hukmronlik (bo‘ysunish) munosabatlariga: arning avtoritar hukmronligi, xotinning eriga va bolalarining ota-onalariga qaramligi, mutlaq ota-onalik hukmronligi hamda tarbiyaning avtoritar tizimiga asoslanadi.

V.K.Shabyelnikov ta’rificha, oilaning zamonaviy tipi bu – davlat va kasbiy faoliyatning yangi shakllariga asoslangan hamda an’anaviy, avvalo, oilalararo barqaror qarindoshurug‘chilik munosabatlarining buzilganligidan farq qiluvchi mahalliy oilaviy tizimlardir. Tadqiqotchilarining fikricha, an’anaviy oila zamonaviy oila bilan taqqoslaganda nisbatan kichikroq hisoblanadi. O‘rta asrlarda va ayniqsa, industrial inqiloblar davrida oila evolyutsiyasi yirik ko‘p yadroli patriarchal oiladan kichik nuklear oilagacha bo‘lgan bir yo‘nalishda kechdi. Hozir jamiyatimizdagi oilalarning eng keng tarqalgan tipi kattalar (er va xotin, ko‘pincha ularning bittasining ota-onasi) va bolalarni o‘z ichiga olgan oila hisoblanadi. Shu bilan birga, bir-ikki farzanddan iborat oila uning eng tipik turi hisoblanadi [5]. Oilalarning shaxsga ta’siri bo‘yicha qilingan tadqiqotlar ko‘p emas, shunday ekan, shaxsga bunday ta’sir ko‘rsatish intellekt va bu turdagagi ta’sirni o‘rganishga nisbatan murakkab hisoblanadi. Bu turdagagi muammolarni tadqiq etish asosan R.Callager, E.Conon, T.Berndt, S.Jiao va boshqalarning psixoanalitik kontsepsiysi doirasida ko‘rsatilgan. An’anaviy oiladagi shaxs rivojlanishi bilan zamonaviy oiladagi bola shaxsi rivojlanishi o‘rtasida qator farqlar mayjud. Madaniyatning an’anaviy tiplarida shaxs rivojlanishini tadqiq qilish asosan F.Boas, Dj.Bruner, I.S.Kon, M.Mid va boshqalarning ko‘pslonli etnopsixologik tadqiqotlarida keltirib o‘tilgan. An’anaviy oila tipi, tuzilishi, sub’ektning aniq vazifasini nazarda tutadi. Ijtimoiy tizimlar, shu jumladan, oila vazifalarini tadqiq qilishda Yu.E.Aleshina, Ya.I.Artsimovich, L.V.Mudrik, N.N. Obozov, A.G.Xarchev, V.K.Shabelnikov, E.G.Eydemiller, V.Yustitskis va boshqa ko‘pgina mualliflar oila spetsifik va nospetsifik vazifalarni bajaradi degan g‘oyani ilgari suradilar. Oilaning spetsifik funksiyalariga reproduktiv (farzand ko`rish; ijtimoiylashtiruvchi (bolalar tarbiyasini ta’minlovchi); uning mohiyati, ijtimoiy tabiatini belgilovchi, muhofaza qiluvchi (oilal a’zolari muhofazasiga javobgarlik) funksiyalari kiradi.

H. Uzakov, E.G’. G’oziyev, A. Tojiyevlar yoshlarni oilaviy hayotga jismoniy, ijtimoiy-psixologik, ruhiy-ma’naviy jihatdan tayyorlash borasida bir qator vazifalar mavjudligini e’tirof etadilar. Shuningdek, yoshlarni turmush qurishga tayyorlash davomida ajralishdek mudhish voqealarning yomon oqibatlarini misollar yordamida tushuntirish bu sohadagi soxta, tor ma’nodagi fikrlarni bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etishiini ta’kidlaydilar.

Yuqorida qayd etilgan Sharq va G’arb olimlarining oila hamda oilaviy munosabatlar xususidagi, shuningdek, mamlakatimiz va xorij olimlarining oila psixologiyasiga doir tadqiqotlarini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin.

Oilalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy munosabatlar bilan bevosita bog’liq ravishda amalgalash oshgan.

Oilalarning muhammosiga bag’ishlangan tadqiqotlarni o‘rganar ekanmiz, unda oilaviy munosabatlarning huquqiy, axloqiy asoslari, ota-onalarining jamiyat va farzandlar oldidagi burchi masalasi doim olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Shuningdek, yoshlar oilaning buyuk ma’naviyat, qadriyat, burch va mas’uliyat ekanini anglab yetmoqlari zarurligi, yigit va

qizlar mustahkam oilani shakllantirish borasidagi milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz haqida yoshligidan to`la vato`g`ri tasavvurga ega bo`lishlari lozimligini ta'kidlaganlar. Chunki oiladagi hayot, ota-onaning bir-biriga munosabati ham ana shunday tushuncha va tasavvurlar shakllanishining asosiy shartlaridandir.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: "A. Qodiriy nomidagi xalq merosi", 1993. -224 b.
2. Аナンьев Б.Г О проблемах современного человекознания. -М.: "Наука", 1977. -380 с
3. Анасимов О.С. Акмеология и методология: проблемы психотехники мыслетехники. -М.: -РАГС 1998. -772 с
4. Голод С.И. Стабильность семьи: социологический и демографический аспекты / С.И. Голод. -Л.: ЛГУ, 2004. -190 с
5. Uzakov H., G'oziyev E. G', A.A Tojiyev "Oila etikasi va psixologiyasi" qo'llanma. -Toshkent: "O`qituvchi", 1992.